

NAIM KARIMOV – OYBEKSHUNOS

Begmatova Dildora Abdunematovna

Alisher Navoiy nomidagi O`zbek tili va adabiyoti universiteti

“Adabiyotshunoslik” yo`nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada akademik Naim Karimov tomonidan Oybek ijodi va uning asarlari tadqiqi haqida fikrlar bayon etilgan. Shuningdek, Oybekni shaxs sifatida ochib bergan.

Tayanch so`z va iboralar: adabiyotshunos, iste'dod, Vatanga muhabbat, buyuk she'riyat, olmos qirralar, go'zal, barmoq vazni, tabiat, asar.

Oltin quyosh nuridan,
Yaproqlar sururidan
To`qilgan xotiralar
Ketmas aslo men bilan

(Oybek)

O`zbekiston fanlar akademiyasida XX asr o`zbek adabiyotshunosligi, adabiy tanqidchiligi san`atshunosligi va madaniyatshunosligi rivojiga munosib hissa qo`shgan ustoz murabbiy, yetuk olim O`zbekiston fanlar akademiyasi akademigi Naim Karimov avvalgi totalitar tuzum ijtimoiy hayotimizga zo`rlab singdirilgan murakkab davrni istebdodni ko`rgan va his qilolgan.

Naim Karimov jadid adabiyoti nafaqat XX asr o`zbek adabiyotining ko`zga ko`ringan adib va shoirlari hayoti va ijodini mukammal o`rganib, asoslab juda katta adabiy meros qoldirmoqda. Naim Karimov o`ndan ortiq kitoblar, yuzdan ortiq maqolalar yozgan.

Iste`dod tabiatning ulug` in`omi. Uning o`zi boylik sifatida yashash huquqiga ega. Buyuk qalb egasi bo`lish ham hammaga ham nasib etavermaydigan fazilat. Oybek o`z siyomosida bu ikki fazilatni birlashtirgan adibdir. Shuning uchun ham u xalqning mehr-muxabbatini qozondi. Shuning uchun ham uning iste`dodi kamalak ranglari bilan porlab ketdi. Faqat nogiron taqdir bu bebaho gavharni tarixning murakkab va mushkul davrlaridan birida yaratib uning Navoiy singari cho`qqiga ko`tarilishiga imkon bermadi. Uning ilhom bulog`i ayrim hollarda o`tkinchi qadriyatlarni kuylash uchun jo`shdi. Sotsialistik realizmning soxta aqidalari aksar hollarda uning yuksak parvoz etishiga halal berdi. Ammo bunday to`siqlarga qaramay, u nasr va nazmda shunday bebaho durdonalar qoldirdiki, ular XX asr o`zbek adabiyotidan kelgusi avlodlarga o`lmas obidalar bo`lib qoladi.

Nash`a va g`am – yurak to`lqini,
Shirin edi hayol, iztirob.
Go`zalliklar quchmishdir uni
Kechinmalar xuddi yosh sarob.

(Oybek)

- Alisher Navoiy yashagan va ijod etgan davr bilan, - dedi Oybek o`zining mashhur nutqida – bizning zamon orasini besh asr ayiradi. Shoirning ilhomkor so`zlari – voqealar, o`zgarishlar girdobi bilan to`la zamon, davrlarning cho`qqilarini osharoq – bizgacha yetib keldi. Navoiy badiiy so`zning titanlari – Shota Rustavelli, Nizomiy, Pushkin, Shevchenko kabi sovet xalqining o`tmishida dunyo xalqlari tomonidan yaratilgan barcha haqiqiy qimmatlar va go`zallilarning yagona merosxo`ridir.

Ma`lumki, Oybek ulkan yozuvchigina bo`lib qolmay, uning go`zal she`riyati ham o`zbek adabiyoti xazinasida munosib o`rin egallaydi. Uning she`riyati tahliliga bag`ishlangan qator maqola va to`lamlar nashr etilgan. Oybek she`riyatida g`oyaviylik va badiiylik, lirik xarakter va liro-epik janr yuksak cho`qqiga chiqqan.

Oybek avlodi adabiyot olamiga kirib kelgan vaqtda M.Behbudiy ,A.Qodiriy.Fitrat,Cho`lpon,Hamza singari ustozlar tufayli o`zbek adabiyoti va tilining yangi taraqqiyot davri boshlangan edi.

She`riyatda barmoq vazni barmoq vaznining kamol topishi nasrda realistik hikoya,qissa va roman janrlari hamda dramaturgiyaning paydo bolishi birinchi navbatda shu ustozlar nomi bilan bogliq.

She`riyat – his-tuygular gulshanidir.Biz Cho`lponning “Go`zal”singari lirik she`rlarni o`qiganimizda qalbimizshu gulshanday taralgan nafosat ifori bilan to`yinadi,ammo,afsuski bir tomondan ,o`z ijodi bilan erk va hurriyat uchun kurashgan ,ikkinchi tomondan shu tufayli taziyyiq va tahdid ostiga olingani hamda shu kurashda sog`lig`ini batamom yo`qotgani uchun Colpon 30-yillarda o`zbek lirik she`riyatini yangi ijodiy bosqichga olib chiqish vazifasini qo`ymadi.

Oybekning sheriy is`tedodi huddi shu davrda olmos qirralari bilan porlab- tovlanib yubordi.Ayniqsa ,1936 yili yozilgan va “Chimyon daftati” turkumini tashkil etgan she`rlarida Oybek,Cho`lpondan keyin barmoq vaznining aruz singari hatto aruzga nisbatan ham katta badiiy imkoniyatlarga ega ekanini isbotlab berdi.

U o`zbek she`riyatining musiqiy ritmik ohanglarini boyitib , nafis tashbehlar bilan bezangan tiliga yanada sayqal berdi. Lirik qahramonning ruhiy olamini shu qadar ajoyib poetik topilmalar va tasvir vositalari yordamida ochib yubordiki ,shoirning lirik tuyg`u va kechinmalar silsilasini ifodalashda nafaqat Cho`lpon balki Pushkin maktabidan ta`lim olgani kundek ravshan boldi. U she`rlaridagi zamon va makonni yorqin bo`yoqlar bilan nurlantirib yubordi , binobarin uning she`rlarida hayotiylik, haqqoniylik , badiiy haqiqat kuchaydi lirik tuyg`uning teranligi,bokiraligi porloqligi ,poetic tilning esa favqulodda nafisligi Oybek she`riyatining oziga xos belgilari sifatida nomoyon boldi.

Sen g`urubning oltin qollaridasen,
Tabassuming ,Quyosh so`nar ohista
Dala va qirlardan tiniqlik uchar ,
Suvlar oynasiga sham qora surkar ,
Hayolning men sokin chollaridamen...

Quyosh botayotgan va tabiat ma'yusona bir kayfiyat og'ushiga kira doshlagan manzarani Oybek shunday aniq va nafis bo'yoqlar bilan chizgan. Biz bu satrlarni o'qiganimizda, shoirning har bir sozi rassomning boyoqlari kabi oqshom manzarasini aniq gavdalantirib berganini koramiz. Biz aynipaytda tabiatning shu lahzadagi manzarasi kishi ruhida uyg'otadigan hazing va mungli bir holatni sezamiz. Bu holat esa bizda mavhum falsafiy oylarga mayillik uyg'otadi. Oybek ozini zabt etgan ana shunday holatni ; "Hayolning men sokin cho'llaridamen" satrlarida aniq va gozal ifodalagan.

Oybek – lirik she'r ustasi . Ammo u ayni vaqtda o'tkir nigohli ijodkor. Shuning uchun ham u tabiat manzarasi yoki inson obrazini tasvirlar ekan siyqa so'zlar va tuzsiz boyoqlarga murojaat etmaydi, balki shu manzara va shu insonga xos eng muhim hayotiy tafsillarni topib , she'riyat marjoniga tizadi.

Oybek bizga bu hayotni bu dunyoni sevishtni ,uning pokligi ,tinchligi uchun kurashish zarurligini anglatdi, Biz undan tarixga, ona xalqimizga bolgan muhabbatni o'rgandik.

Vatanni sev , tuprog'ini o'p,
Har qarichi muqaddas bizga.
Cholidagi hatto quruq cho'p
Jondan yaqin yuragimizga

Biz undan qo'limizni, dilimizni pok tutishni o'rgandik va o'rganamiz.

Oybek hamisha biz va kelgusi avlod uchun ustod bolib qolaveradi, bugungi va kelgusi avlod uni qayta-qayta kashf etaveradilar.

Ustoz Naim Karimov ta'kidlashicha, "Oybek domlaning buyikligi shunda ediki, Qodiriy va Cholponlar qatog'on qilingan va ularning asarlarini o'qish mumkin bo'lmagan paytda endi tug'ila boshlagan roman janri o'lishi mumkin edi.

Oybek domla ularning yo'qligini bildirmaslik uchun o'zi yaxshi shoir bo'lishiga qaramasdan, prozaga o'tdi. "Qutlug' qon", "Navoiy " romanlarini yozib , Qodiriy , Cho'lponlar boshlab bergan janrni yangi cho'qqiga ko'tarib berdi".

Oybek iste'dodli shoir yirik nosir bo'libgina qolmay, mashhur olim . publisist, tanqidchi va tarjimon davlat va jamoat arbobi hamdir.

Yozuvchi asarlari o'zbek adabiyotining jahonlararo shuhratini yanada oshirdi Ustoz mahorati yosh yozuvchilar uchun ijod dorilfununiga aylandi. Oybekning o'lmas asarlari ma'naviy xazinamizdan mustahkam o'rin oldi va umumxalq mulki bo'lib qoldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov N. "Oybek va Zarifa". – T.: O'zbekiston, 1990.-127b.
2. Karimov N. "Oybek". – T.: Yosh gvardiya, 1985.-200b.
3. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/naim-karimov-najot-adabiyotdadir>
4. <https://arxiv.uz/uz/documents/diplom-ishlar/adabiyot/naim-karimovning-adabiy-tanqidchilikda-tutgan-o-rni>
5. <https://kh-davron.uz/ijod/maqolalar/xurshid-davron-ochmagan-ovoz.html>